

O'zbekistonda Ayollar Uy Xizmati Mehnat Migrasiyasining Rivojlantirishning Ustuvor Yo'nalishlari

*Rabiev Bobomurod Bahadirovich*¹

Annotatsiya: O'zbekistonda migratsiya masalalarini muofiqlashtirish siyosat darasiga ko'tarilmoqda, Rahbariyatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonunlardan ko'zlangan maqsad, mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish aholi turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan. Maqolada O'zbekistonda ayollar uy xizmati mehnat migratsiyasini ustuvor yo'nalishlari va istiqbollar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'zbekistonda ayollar migratsiyasi, xalqaro mehnat tashkiloti, xorijda ish, mehnat bozori, yuqori haq to'lanadigan kasblar.

Kirish. O'zbekiston 2018-yil noyabr oyida xalqaro migratsiya tashkiloti (XMT)ning to'laqonli a'zosi bo'ldi. 1951 yilda tashkil etilgan XMT migratsiya sohasidagi yetakchi hukumatlararo tashkilot bo'lib, insonparvarlik va tartibli migratsiya muhojirlar va jamiyatga foyda keltiradigan prinsipga amal qiladi. XMT butun dunyo bo'ylab muhojirlarni qo'llab-quvvatlaydi, o'zgaruvchan migratsiya dinamikasiga samarali javob choralarini ishlab chiqadi va shuning uchun migratsiya siyosati va amaliyoti bo'yicha tavsiyalarning asosiy manbai hisoblanadi.

XMT migratsiyani tartibga solish va insonparvar boshqarish, migratsiya masalalari bo'yicha xalqaro hamkorlikni ta'minlash, migratsiya muammolariga amaliy yechimlarni topish va muhtoj muhojirlarga yordam berishda yordam beradi. Shuningdek, migratsiya va rivojlanish, migratsiyani rag'batlantirish, migratsiyani tartibga solish va majburiy migratsiya muammolarini hal qilish kabi to'rtta keng migratsiya boshqaruvida ham ishlaydi. XMT hukumat, hukumatlararo va nodavlat sheriklar bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

2024-yil 2-aprel kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda Prezidentimiz tomonidan migratsiya masalalariga oid qator vazifalar belgilab berildi. Buning mantiqiy davomi sifatida 4 aprel kuni «Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Prezident farmoni qabul qilindi. Prezidentimiz farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligiga davlat muassasasi maqomi berildi. Avvallari Agentlik o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlagan bo'lsa, endilikda esa qisman davlat byudjetidan ham mablag' ajratiladi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasida Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo'limi tashkil etiladigan bo'ldi.

2024 yil 1 iyuldan boshlab xususiy bandlik agentliklariga xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasining tashqarisida ishga joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatganlik uchun haq undirishga ruxsat etiladigan bo'ldi.

MAQSAD VA UNI ASOSLASH; Farmon bilan «2024-2025 yillarda migratsiya sohasidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha «yo'l xaritasi» ham tasdiqlandi. Undagi 5 bo'limda 29 ta banddan iborat bo'lgan vazifalar belgilab berildi. Jumladan, migratsiya sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, joriy yil yakuniga qadar O'zbekiston Respublikasining migratsiya siyosati yo'nalishida 2030 yilgacha bo'lgan strategiyasini ishlab chiqish, ushbu sohada xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, ichki migratsiya masalasiga oid va boshqa bir qator muhim vazifalar o'z aksini topgan.

¹ «Oila va gender» ilmiy-tadqiqot insituti mustaqil izlanuvchisi



2023 yil 1 aprel holatiga ko‘ra, mamlakat tashqarisidagi O‘zbekiston mehnat muhojirlari soni 2,4 mln. ulardan 76 foizini erkaklar va 24 foizini ayollar tashkil etadi. O‘zbekistondan asosan past malakali ishchilar va o‘rta maxsus ma‘lumotga ega bo‘lganlar chiqib ketadilar. Bugungi kunda muhojirlarning aksariyati 51,6 foizi qurilish, 12,3 foizi qishloq xo‘jaligi, 9,2 foizi sanoat, 8,5 foizi savdo va xizmat ko‘rsatish(uy xizmatchi xam shular jumlasidandir) kabi sohalarda ishlab kelmoqda.

Ayollar O‘zbekistondagi ishchi kuchining 47% ga yaqinini tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlariga ko‘ra, ayollar mehnat bozorida kamroq ishtirok etishadi, va buning o‘zbek jamiyatiga xos jixatlar shundaki:

- An’anaviy gender rollari: Ko‘plab jamiyatlarda ayollarning asosiy vazifasi uy-ro‘zg‘or ishlari va bolalarni parvarish qilish deb qaraladi. Bu ayollarning mehnat bozorida ishtirokini cheklaydi.
- Ta‘lim va malaka tizimidagi tafovutlar: xanuzgacha saqlanib kelayotgan bazi stereotiplar, mamlakatda qizlarning ta‘lim olish imkoniyatlari chegaralangan bo‘lib, bu ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligiga ta’sir qilmoqda.
- Oiladagi majburiyatlar: Ayollar ko‘proq bolalarni parvarish qilish, uy-ro‘zg‘or yumushlari bilan band bo‘ladilar. Bu ularning ish hayotiga to‘laqonli qo‘shilishiga to‘sqinlik qiladi.
- Ayrim xollarda ayollarning mehnat faoliyati oilaning ijtimoiy mavqeiga putur yetkazishi mumkin deb hisoblanadi.(oilada boquvchi faqat erkak bo‘lishi kerak) Bu qarashlar ayollarning mehnat bozorida faol ishtirok etishiga halaqit beradi
- Xozirgi kunda mamlakatimizda ayollarning iqtisodiy faollik darajasi erkaklarning ayni ko‘rsatkichidan 8,3% ga past, umumiy xisobda ayollarniki 68,2%, erkaklarniki 76,5%,
- Mexnatda bandlik darajasi esa 9,1% ga past ayollarniki 64%, erkaklarniki 73%.
- Ayollarning iqtisodiy nafaoligi erkaklarning shu ko‘rsatkichidan 17,5% ga yuqori ayollarniki 33,9%, erkaklarniki 16,3%.

O‘zbekistonda ayollar ro‘yxatga olingan ishsizlarning yarmidan ko‘prog‘ini tashkil qiladi. Ayollar va erkaklar turli tarmoq va mutaxassisliklarda mashg‘ul, mehnat bozorida gender farqlanishi mavjud. Ayollar iqtisodiyotning sog‘liqni saqlash, sport va ular barcha band bo‘lganlarning 75% ini tashkil qiladigan ijtimoiy ta‘minot, shuningdek ishchilarning 2/3 qismi ayollarni tashkil qilgan ta‘lim, madaniyat, san‘at va fanni birlashtiruvchi sohalarda faoliyat ko‘rstadilar. Asosan erkaklar ishlaydigan qurilish, transport va aloqa kabi tarmoqlarda ayollarning ulushi mos ravishda 11,1% va 15,5% ni tashkil qiladi.


Xalqaro mehnat migratsiyasining zamonaviy xususiyatlaridan biri bu muhojirlar orasida xotin-qizlar sonining ortishidir. So‘nggi yillarda migrant qabul qiluvchi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida og‘ir jismoniy mehnat talab qilmaydigan sohalarning, xususan xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanishi va ish joylariga nisbatan talabning oshishi kabi jahon bozoridagi zamonaviy tendensiyalar, shuningdek xizmat ko‘rsatish sohalarning rivojlanishi xalqaro mehnat migratsiyasining muhim bir qismiga aylangan xotin-qizlar mehnat migratsiyasining shakllanishiga va ayollar orasida individual migratsiya rivojlanishiga turtki bo‘ldi. So‘nggi yillarda migrant xotin-qizlar huquqlarini ta‘minlash va himoya qilish, odam savdosi va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish, migrantlar integratsiyasi, xavfsiz, tartibli, qonuniy migratsiyani tashkillashtirishda hukumatlar yondashuvi, O‘zbekistonda ham migratsiyaga oid eng muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

ILMIY MUAMMONING TAVSIFI VA YECHIMI: Jahon banki tomonidan 2019 yilda «O‘zbekiston fuqarolarini tinglab» loyihasi doirasida o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, mehnat muhojirlari bilan uy xo‘jaliklarining ulushi bugungi kunda yuqori darajaga ko‘tarildi, ya’ni 20 foizni tashkil etdi, bu deyarli har beshinchi oilada mehnat muhojirining mavjudligini tasdiqlaydi. Xozirgi kunga kelib umumiy xisobda xar uchinchi oilada migrant borligi aniqlangan. Shunday oilalar xam borki ularda uch-to‘rt kishi xorijda mexnat qiladi. Oilaviy migratsiya xam tendensiyaga aylanib bormoqda, Oilaviy migratsiya asosan rivojlangan davlatlarga qaratilgan bo‘lib malakali ishchilar tomondan amalga oshirilmoqda, bu esa mamlakatimizda past malakali ishchilar kamayib professional



kadrlar salmog'i ortib borayotganligi anglatadi. Ayol migrantlar asosan, uy xizmatlari, qishloq xo'jaligi sohasi, mehmonxona biznesi, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi ijtimoiy sohalarida faoliyat ko'rsatadilar. Masalan, ular Germaniyada asosan, sog'liqni saqlash soxalarida, qariyalarga qarash, bemorlarni parvarishlash, Turkiyada enagalik, qariyalarga qarash, Rossiyada shaxsiy o'qituvchi, oshpaz, uy tozalovchi. Isroilda qariyalarga g'amxo'rlik, uy ishlarga yordamchi, Koreyada xam qariyalarni parvarishlash, Qozoqistonda oshpaz, uy xizmatchisi kabi ijtimoiy sohalarida faoliyat ko'rsatadilar. Shu o'rinda eslatib o'tmoqchimiz Yevrostat ma'lumotlariga ko'ra, Yevropadagi 25-54 yoshdagi oliy ma'lumotli migrant ayollarning 30%dan ortig'i yuqori malakaga ega bo'lib, ular fan, texnologiya, matematika va tibbiyot kabi sohalar bo'yicha mutaxassis hisoblanadi.

So'ngi yillarda mamlakatimizda ayol qizlarni mexnatga jalb qilish, gender tengligini oshirish maqsadida samarali ishlar qilinmoqda. Ayollarlar uchun oliy o'quv yurtlarida grantlar, kvotalar ajratilmoqda, magistratura bosqichlariga o'qiyotgan talaba qizlarni kontrakt pullari to'lib berilmoqda.




1. diagramma respublikamizdagi talabalar soni.

Respublika statistika agentligi tomonidan berilgan malumotlarga ko'ra talablar orasida qizlar ulushini ortishi 2020-2024 yillar orasida 3.5 baravar ortgan xozirga kelib 656.5 ming talaba qizlar taxsil olmoqda. Bu esa bitiruvchi talaba yoshlar kelajakda mamlakatimizda va xorijda malakali mutaxassis bo'lib ishlash imkoniyatini bildiradi.

Dunyo bo'ylab 67,2 million uy xizmatchilarining 17,2 %ini ya'ni 11,5 millionini migrant uy xizmatchilari tashkil qiladi. Bu esa dunyo bo'ylab shaxsiy va uy xizmatlari uchun migrantlarga bo'lgan talabning yuqori ekanligini ko'rsatadi. Dunyo bo'ylab uy xizmatchilarining 80%i yuqori daromadli mamlakatlarda joylashgan bo'lib, ular mazkur mamlakatlardagi jami migrantlarning 66%ini tashkil qiladi. Bu holat esa, uy xizmatchilari va ayollar migratsiyasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi, natijada ishga yollanayotgan 10 ta ayoldan 6 tasini uy xizmatchilari tashkil qiladi.





2. Diagramma Xorijdagi mehnat migrantlari,

2024 yilda may holatiga ko'ra Respublikamizda jami 1 898 971 kishi xorijda mehnat faoliyatini olib bormoqda shundan ayollar 549 212 nafar (Erkaklar 1 349 759). Raqamlar faqat qonuniy ishlab yurgan migrantlarga tegishli bo'lib, Xorijdagi mehnat statistika agentliklari O'zbekistondagi bandlik vazirligi xisobotiga ko'ra hisoblab chiqilgan. Hozirda Rossiyada Federatsiyasida 55% vatandoshlarimiz mehnat qilmoqda. 2019 yilda bu ko'rsatgich 80 % teng bo'lgan yani vatandoshlarimizni aksariyati Rossiya xududlarida mehnat qilishgan.

Qozog'iston respublikasida mehnat qilayotgan vatandoshlarimiz salmog'i jami migrantlarning 10.4% ni tashkil etadi buni sababini iqtisodchi olimlar Qozog'istonda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi davomadning yuqoriligi² 2023 yilda YaIM miqdori 260 mlrd dollar. Shuningdek geografik jihatdan ko'shni joylashuvni tasiri xam kattadir deya baholashgan.


Turkiyada mehnat qilayotgan vatandoshlarimiz 2016 yil migratsiya siyosatiga boshqacha tus berila boshlagandan so'ng sezilarli darajada soni ortdi va jami migrantlarni 6.3% ni tashkil etdi. 2024 yil Turkiya statistika agentligi bergan ma'lumotlarga ko'ra mamlakatda 98 mingga yaqin o'zbek mehnat migrantlari bor³.

Boshqa mamlakatlarda mehnat qilayotgan o'zbeklar jami migrantlarni 23 % dan ortig'ini tashkil etdi. Migratsiya siyosati tufayli aholi orasida xorijga ketish istagida monomarkazlarga, til o'qitish markazlarga, xususiy bandlik agenstvalarga murojaat qilayotgan ayollar soni ortmoqda.

² **Источник:** Finprom.kz (www.finprom.kz/).

³ <https://en.goc.gov.tr/residence-permits> Туркия хукумати миграция бошқармаси 2024-йил 08 август ойи маълумотига асосан.





3 rasm. O'zbek ayollarining uy xizmati migratsiyasining istiqbolli xaritasi

Rasmda ko'rsatilgan yo'nalishlar mamlakatimiz ayollari uchun potesial davlatlar xisoblanib. Germaniya, BAA, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Isroil, Rossiya kabi davlatlarda hozirda O'zbekistonlik ayollar uy xizmati soxalarida faoliyat ko'rsatmoqda. Yaqin kelajakda dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlar bilan ayniqsa demografik qarish kuzatilayotgan g'arb davlatlari bilan shartnomalar imzolanmoqda. Bu borada migrantlarni qabul qiluvchi va jo'natuvchi davlatlar hamda bandlik agentliklari o'rtasida ishlarning sifatli tashkil etilishini ta'minlovchi kelishuvlar amalga oshirilmoqda. Jumladan ayollar uy xizmati mehnati migratsiyasini rivojlantirishda. Ishga joylashtirish xizmatlari va axborot ta'minoti tizimini yaxshilash. Ayollar uchun ishga joylashtirish jarayonini osonlashtirish va ma'lumotlar bazasi yaratildi va yanada takomillashtirilmoqda. Xorijda ishlamoqchi bo'lgan ayollarga mehnat shartnomalarining huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqish. Ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish. Buning samarasida respublikamizda 2021 yildan beri qonuniy migrantlar o'z-o'zini ish bilan band bo'lganlar bilan tenglashtirildi. Kasbiy tayyorgarlik dasturlarini rivojlantirish. Ayollarning malakasini oshirish, uy xizmati sohasida yangi ko'nikmalarni o'rgatish. Amaliy ko'mak va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish. Ayollarning migratsiya jarayonlarida va mehnat faoliyatida qo'llab-quvvatlanish. Xorijda ishlash davomida turli muammolarga duch kelsa yordam berish maqsadida elchixonalar tomonidan yordam va 7/24 call markazlari joriy qilindi. Ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish, ularning xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rish. Ajrashgan, nogiron farzandlari bor ayollarga ijtimoiy ko'mak berish, maxalliy birjalar va monomarkazlar tomonidan xorijga iiga jo'natish rejalari ishlab chiqilmoqda. Ayollar o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish. Migratsiya bilan bog'liq muammolarni kamaytirishga qaratilgan tadbirlar. Ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish, ularning xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rish. Bunday kompleks yondashuv ayollar uy xizmati mehnati migratsiyasini rivojlantirish va ayollar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi. O'zbekistonda ayollar uy xizmati migratsiyasini takomillashtirish albatta o'z samarasini berishiga ishonsak bo'ladi va yana shu o'rinda ular iqtisodiyotimizga, jamiyatimizga, inson kapitalini o'sishiga yordam beradi. Osiyoning kichik davlatlaridan biri xisoblangan, Nepalda asosan, uy xizmatchisi bo'lgan ayol migrantlarning pul



o‘tkazmalari mamlakatga yuborilgan jami migrantlarning o‘tkazmalarining 50%ini yoki YaIMning 23%ini tashkil qiladi.

Xulosa

O‘zbekistonning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib ayollar uy xizmati mehnat migratsiyasini takomillashtirish zarur, o‘zbek ayolini tajribasi oila va bolalarga g‘amxo‘rlik qilishi azaldan davom etib kelayotgan qadryatlardan biri sifatida etirof etilishi va bu sohani rivojlaninida muhim ahamiyat kasb etadi.

Turkiya va Rossiya Federatsiyasida mehnat qilayotgan hamyurtlarimiz ish sharoiti va oylik maoshlari farq qiladi. Rossiyada erkak migrantlar ko‘p bo‘lsa Turkiyada ayol migantlar va ular orasida uy xizmatchisi sohalarida faoliyat olib borayotganlar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Avvallari O‘zbekistonning asosiy aholisi Rossiya federatsiyasiga borib ishlashni maqul ko‘rishgan. Hozirga kelib migrantlar yo‘l xaritasi kengaydi va boshqa xorijiy davlatlarga mehnat migratsiyasi uchun ketayotganlar salmog‘i ortdi.

Aholini va Oliy talim bitiruvchilarni munosib ish bilan taminlash davlatimiz YaIM ni oshirish hamda inson kapitalini rivojlantirish uchun qonuniy migratsiyani rivojlantirish va xorijiy davlatlar bilan xamkorlik aloqalarini kuchaytirish muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Freeman G. Immigrant labour and racial conflict in industrial societies: the French and British experiences. Princeton, 1979.
2. McNeil W.H. Human migration: an historical overview. 1978.
3. Михайленко Н.В. Международная миграция труда и ее влияние на национальные экономики// Управление. 2019. № 3. С. 127–132.
4. <https://stat.uz/uz/default/press-relizlar/34336-2023-3>
5. <https://www.uzanalytics.com/jamiyat/10250/>
6. <https://www.gazeta.uz/ru/2021/12/18/migrants/>
7. <https://lex.uz/ru/docs/6868721>

